



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - SENTABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-203-88-07

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar – sentabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar – sentabr oylarida shahar korxonalari tomonidan 86,4 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar – sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,9 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 71,6 trln. so'mni tashkil etdi.



*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 30,3 % ga, o'sishi kuzatildi. Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 0,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 8,1 % ga pasayish kuzatildi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 13,2 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar – sentabr oylarida, % da)



### Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - sentabr	2023- yil yanvar - sentabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	492,7	500,5	7,8
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	26543,2	24488,5	-2054,7
Gaz kondensati, ming t.	540,3	486,1	-54,2
Chaqiq tosh ming t.	513,7	1312,8	-799,1
Shagʻal t.			

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,6 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar – sentabr oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,3 % ni (2022- yilning yanvar – sentabroylarida – 8,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,6 % (20,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,8 % (29,9%) va quyi texnologiyalisi – 40,2 % (41,5%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,5 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,1 % (2022- yilning yanvar-sentabroylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,9% (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,3 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa



buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,6 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,9 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2023-yilning yanvar – sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 104747,0 tonna Yumshoq bug'doy va spelta uni mahsuloti (4,9 marta ga oshgan), 7984,1 tonna Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq mahsulotlari (2,6 marta ga oshgan), 213,8 tonna daftarlar (80,3% ga oshgan), 2099,2 tonna paketlar va paketlarni qadoqlash (69,2 %) va hamda 14108,6 tonna mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj mahsulotlari (14,0%) ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


O'simlik yog'l (tozalangan)	Margarin va yormalar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
-----------------------------	----------------------	-------------------------------



Pivo	Aroq	Uzum vinosi
------	------	-------------



Tamaki mahsulotlari	Paxta kalavasi
---------------------	----------------



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini**  
**tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2022- yil yanvar - sentabr</b>	<b>2023- yil yanvar - sentabr</b>	<b>Farqi +/-</b>
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.</b>	51,2	104,7	53,5
<b>Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.</b>	27,8	25,8	-2,0
<b>Margarin va yormalar tonna.</b>	12181,6	2805,4	-9376,2
<b>Pivo – mln litr</b>	65,7	76,8	11,1
<b>Traktorlar - dona</b>	116,0	10,0	-106,0
<b>Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona</b>	577,9	566,5	11,8
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>	11917,0	13246,0	1329,0
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>	1560,0	1485,9	-74,1




## Metallurgiya sanoati

(yanvar - sentabr)



FHI  
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 12,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 36,9 ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 14,1 % ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 117,9 va ishlab chiqarish hajmi 12171,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar – sentabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 16,5 % ga kamaygan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3394,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI  
% da






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – sentabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,6 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 8468,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – sentabr oylarida)

**FHI**  
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 2 marta oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar – sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8755,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – sentabr oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 92,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar – sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,2 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3643,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – sentabr oylarida)




2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 105,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1318,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar – sentabr oylarida)

2022- yilning yanvar - sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabroylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 22,4 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2760,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - sentabr oylarida)




2022 - yilning yanvar – sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 268,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 57,5 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 280,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - sentabr oylarida)



2022- yilning yanvar – sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oyilarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 100,5% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 3271,3mlrd.so‘m-ni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - sentabr oylarida)

2022- yilning yanvar - sentabroylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - sentabroyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi 112,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2976,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar – sentabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,7 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar – sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,7 % ga kamayganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

(yanvar - sentabr oylarida, % da)



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	447,1	2926,6	2479,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	8363,0	7513,3	-849,7

Elektroenergiya uzatish  
bo'yicha xizmatlar, mln so'm.


636,8

692,4

55,6

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar - sentabr oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar –sentabr oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	200,1	247,7	47,6
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	257,7	203,3	-54,4
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	122,3	139,1	16,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 62,4 % ga , oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov

berish bo'yicha xizmatlar 13,7 % ga , tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 23,8 % ga, o'sish kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 28,1 trln.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 31,0 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,9 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonolari**  
*(2023- yil 1 sentabr holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,7 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2023- yilning yanvar-sentabroylarida Toshkent shahrida 1131 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*